


ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021 - yil yanvar-fevral)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021-yil yanvar-fevral oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 308,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 143,9 mln. AQSh dollariga yoki 31,8 % ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI**
(yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari)



Ma'lumot uchun: Andijon viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat To'var nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**ANDIJON
VILOYATI
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
ULUSHGA EGA
BO'LGAN
DAVLATLAR
(yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari, ulushi,
% da)**

TSA da eksport hajmi 116,9 mln. AQSh dollariga (2,0 m. ga o'sdi) va import hajmi 191,6 mln. AQSh dollariga (51,5 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 74,7 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Koreya Respublikasi	104,6	0,1	104,5	33,9
Qozog'iston	49,5	47,9	1,6	16,0
XXR	44,1	16,1	28,0	14,3
Qirg'iz Respublikasi	42,0	35,7	6,3	13,6
Rossiya Federatsiyasi	23,6	9,0	14,6	7,7
Turkiya	16,9	3,2	13,7	5,5
Braziliya	2,7	0,0	2,7	0,9
Ukraina	2,7	2,2	0,5	0,9
AQSh	2,2	0,1	2,1	0,7
Xindiston	2,2	0,0	2,2	0,7

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Andijon viloyati, jahonning 55 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (33,9 %), Qozog'istonda (16,0 %), Xitoy Xalq Respublikasida (14,3 %), Qirg'iz Respublikasida (13,6 %), Rossiya Federatsiyasida (7,7 %), Turkiya (5,5 %), Braziliya (0,9 %) va Ukraina (0,9 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston, Qirg'iz Respublika va Turkmaniston bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Koreya Respublikasi, XXR, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Braziliya, Ukraina, AQSh va Xindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 4 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qozog'iston (46,3 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (29,4 mln. AQSh dollari), Ukraina (1,7 mln. AQSh dollari) va Moldova Respublikasi (1,0 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir.

ANDIJON
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari)

Davlatlar	2019- yil.	2020- yil.	2021- yil.
Koreya Respublikasi	262,6	264,5	104,6
Eksport	0,3	0,0	0,1
Import	262,3	264,5	104,5
Saldo	-262,0	-264,5	-104,4
Qozog'iston	6,1	5,6	49,5
Eksport	4,1	4,3	47,9
Import	2,0	1,3	1,6
Saldo	2,1	3,0	46,3
XXR	45,0	49,7	44,1
Eksport	20,6	12,5	16,1
Import	24,4	37,2	28,0
Saldo	-3,8	-24,7	-11,9
Qirg'iz Respublikasi	17,0	24,6	42,0
Eksport	13,7	23,1	35,7
Import	3,3	1,5	6,3
Saldo	10,4	21,6	29,4
Rossiya Federatsiyasi	33,0	37,8	23,6
Eksport	7,6	8,0	9,0
Import	25,4	29,8	14,6
Saldo	-17,8	-21,8	-5,6
Turkiya	4,9	14,7	16,9
Eksport	0,1	2,0	3,2
Import	4,8	12,7	13,7
Saldo	-4,7	-10,7	-10,5
Braziliya	3,0	4,3	2,7
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	3,0	4,3	2,7
Saldo	-3,0	-4,3	-2,7

ANDIJON
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari)



Davlatlar	2019- yil.	2020- yil.	2021- yil.
Ukraina	0,9	0,6	2,7
Eksport	0,5	0,6	2,2
Import	0,4	0,0	0,5
Saldo	0,1	0,6	1,7
AQSh	2,2	3,2	2,2
Eksport	0,1	0,1	0,1
Import	2,1	3,1	2,1
Saldo	-2,0	-3,0	-2,0
Xindiston	2,4	2,3	2,2
Eksport	0,0	0,1	0,0
Import	2,4	2,2	2,2
Saldo	-2,4	-2,1	-2,2
Polsha	0,7	0,9	1,9
Eksport	0,0	0,1	0,2
Import	0,7	0,8	1,7
Saldo	-0,7	-0,7	-1,5
Italiya	1,8	2,6	1,7
Eksport	0,0	0,3	0,0
Import	1,8	2,3	1,7
Saldo	-1,8	-2,0	-1,7
Chexiya	2,1	2,8	1,4
Eksport	0,0	0,1	0,0
Import	2,1	2,7	1,4
Saldo	-2,1	-2,6	-1,4
Avstriya	0,5	0,6	1,3
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,5	0,6	1,3
Saldo	-0,5	-0,6	-1,3

ANDIJON
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari)

Davlatlar	2019- yil.	2020- yil.	2021- yil.
Eron Islom Respublikasi	1,1	0,9	1,1
Eksport	0,6	0,2	0,1
Import	0,5	0,7	1,0
Saldo	0,1	-0,5	-0,9
Daniya	0,0	0,0	1,1
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,0	0,0	1,1
Saldo	0,0	0,0	-1,1
Tailand	1,4	18,4	1,1
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	1,4	18,4	1,1
Saldo	-1,4	-18,4	-1,1
Slovakiya	0,6	0,9	1,0
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,6	0,9	1,0
Saldo	-0,6	-0,9	-1,0
Moldova Respublikasi	0,4	0,4	1,0
Eksport	0,4	0,4	1,0
Import	0,0	0,0	0,0
Saldo	0,4	0,4	1,0
Germaniya	2,1	4,0	0,8
Eksport	0,0	0,0	0,2
Import	2,1	4,0	0,6
Saldo	-2,1	-4,0	-0,4

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-fevral oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 39,1 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi hajmi 2020- yilning shu davriga nisbatan 62,3 % ga oshgan.

ANDIJON
VILOYATINING
TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA
MDH
MAMLAKATLARI
VA BOSHQA
XORIJIY DAV-
LATLARNING
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, % da)




2021- yil yanvar-fevral oylarida boshqa xorijiy davlatlarning TSA sidagi ulushi 60,9 % ni tashkil etib, 2020- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (83,6 %).

ANDIJON VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-fevral)

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning eksportyorlari soni 195 tani tashkil etib, ular tomonidan 116,9 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020-yilning mos davriga nisbatan 2,0 m. ga o'sdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalari (43,4 %), turli xil tayyor buyumlar (25,2 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (25,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,0 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (2,5 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (0,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT
TARKIBI
(2021-yil
yanvar-fevral,
ulushi, % da)



**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
EKSPORT
TARKIBI
(2021- yil
yanvar-fevral)**

XSST tarkibi	Ming AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	116 956,6	96 788,8	20 167,8	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 552,6	3 311,9	240,7	3,0	3,4	1,2
Ichimlik va tamaki	31,6	31,6	--	0,0	0,0	-
Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	2 851,4	635,4	2 216,0	2,5	0,7	11,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,6	3,6	-	0,0	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,2	-	0,0	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	262,2	228,0	34,1	0,2	0,2	0,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalan-gan sanoat tovarlari	29 359,5	12 033,7	17 325,9	25,1	12,4	85,9
Mashinalar va transport asbob uskunalar	50 711,0	50 664,0	47,0	43,4	52,4	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	29 455,7	29 284,4	171,3	25,2	30,3	0,8
Xizmatlar	728,8	596,0	132,8	0,6	0,6	0,7

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2021 - yil
yanvar-fevral)**

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlarga eksportning asosiy qismi mashinalar va transport asbob uskunalar hissasiga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha turli xil tayyor buyumlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarga to'g'ri kelmoqda.

XSST tarkibi	2020- yilning yanvar-fevraliga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	2,0 m.	2,3 m.	124,8
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	177,2	170,3	4,0 m.
Ichimlik va tamaki	93,1	93,1	-
Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	51,7	14,6	193,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,7 m.	6,7 m.	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,1	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	164,0	144,7	15,1 m.
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	149,6	199,6	127,4
Mashinalar va transport asbob uskunalar	5,3 m.	5,5 m.	13,0
Turli xil tayyor buyumlar	150,0	156,2	19,4
Xizmatlar	111,2	108,7	123,7

**EKSPORT
TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-fevral,
% da)**

2021-yil yanvar-fevral oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020 - yilning yanvar-fevraliga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, ichimlik va tamaki hamda hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o'sish kuzatildi.

XSST tarkibi	2019- yil.	2020- yil.	2021- yil.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,5	3,5	3,0
Ichimlik va tamaki	0,0	0,1	0,0
Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	5,5	9,6	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,4	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,4	0,3	0,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	49,5	34,2	25,1
Mashinalar va transport asbob uskunalar	5,9	16,7	43,4
Turli xil tayyor buyumlar	22,2	34,2	25,2
Xizmatlar	1,0	1,2	0,6

**XSST BO'LIMI
BO'YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2021-y.
yanvar-fevral)**


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	3 140,5	193,2
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	233,0	107,6
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	97,5	158,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	56,4	136,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	15,8	26,6
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	31,6	93,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 174,6	188,5
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	492,0	4,9 m.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	180,5	4,2
56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaxo toshlardan tashqari)	4,3	155,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3,6	6,7 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,1	0,1
Qayta ishlangan hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	128,1	3,8 m.
Noorganik kimyo moddalar	46,1	143,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	32,3	151,4
Organik kimyo moddalari	25,1	-
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	18,8	43,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		

**XSST BO'LIMI
BO'YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2021 - y.
yanvar-fevral)**

To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	27 169,6	147,0
Metaldan tayyorlangan buyumlar	1 628,1	2,1 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	353,2	111,8
Cho'yan va po'lat	70,9	326,6 m.
Rangli metallar	66,2	7,0 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	47 975,2	7,5 m.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari	2 549,1	89,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	141,8	54,8
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	26,6	135,9
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	10,2	48,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	27 872,0	174,1
Poyabzal	747,1	31,4
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	576,3	69,0
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash buyumlar	108,8	38,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	94,7	130,2
Xizmatlar		
Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish boshqa joyda tafsiflanmagan	294,6	2,6 m.
Moliyaviy xizmatlar	243,0	87,4
Safarlar (turizm)	104,2	83,8
Transport xizmatlari	87,0	61,5

**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI**
(yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, % da)

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yil yanvar-fevral oylaridagi 51,8 % dan 2021- yil yanvar-fevral oylarida 82,8 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 48,2 % dan 17,2 % ga kamaydi.



2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qozog'iston (41,0 %), Qirg'iz Respublikasi (30,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,7 %), Rossiya Federatsiyasi (7,7 %), Turkiya (2,7 %), Ukraina (1,9 %) va Moldova Respublikasi (0,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 98,3 foizni tashkil etmoqda.

**ANDIJON
VILOYATI
EKSPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2021- yil
yanvar-fevral,
% da)**



Qozog'iston 41,0



Qirg'iz Respublikasi 30,5



XXR 13,7



Rossiya Federatsiyasi 7,7



Turkiya 2,7




Ukraina 1,9



Moldova Respublikasi 0,8



Boshqalar 1,7



**ANDIJON
VILOYATINING
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARGA
AMALGA
OSHIRGAN
EKSPORTI
HAJMI VA
O'SISH
SUR'ATLARI
(yanvar-fevral,
mln. AQSh.
dollar)**

Asosiy hamkor davlatlar	Eksport	O'sish sur'ati, % da
Qozog'iston	47,9	11,2 m.
Qirg'iz Respublikasi	35,7	154,5
Xitoy Xalq Respublikasi	16,1	128,6
Rossiya Federatsiyasi	9,0	112,0
Turkiya	3,2	159,1
Ukraina	2,2	4,0 m.
Moldova Respublikasi	1,0	2,4 m.

**ANDIJON
VILOYATINING
AYRIM
DAVLATLAR
BILAN EKSPORT
TARKIBI
(2021 - yil
yanvar-fevral,
ming AQSh.
dollar)**

Davlat nomi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Qozog'iston	4 276,3	47 921,5	104,8	1120,6	4	1
Qirg'iz Respublikasi	23 082,8	35 667,3	168,0	154,5	1	2
Xitoy Xalq Respublikasi	12 489,0	16 055,0	60,7	128,6	2	3
Rossiya Federatsiyasi	8 042,4	9 006,1	105,4	112,0	3	4
Turkiya	1 995,6	3 174,6	2134,9	159,1	6	5
Ukraina	552,9	2 237,2	105,9	404,7	9	6
Moldova Respublikasi	391,7	958,5	101,3	244,7	10	7
Ozərbayjon	3 261,0	497,8	1724,6	15,3	5	8
Turkmaniston	18,1	198,1	90,6	1092,6	25	9
Polsha	38,5	190,9	126,3	496,2	23	10
Tojikiston	951,7	173,5	2050,0	18,2	7	11
Germaniya	-	145,7	-	-	37	12
Belarus Respublikasi	742,8	128,7	205,5	17,3	8	13
Afgoniston	130,3	105,9	6,9	81,3	16	14
Eron Islom Respublikasi	175,0	87,2	30,1	49,8	14	15
Koreya Respublikasi	40,9	74,0	13,6	180,8	21	16
Litva	205,1	65,5	-	31,9	12	17
AQSh	58,7	63,7	84,9	108,6	19	18
Ruminiya	50,2	32,9	84,5	65,5	20	19
Latviya	165,0	23,0	72,5	13,9	15	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan mashinalar va transport asbob uskunalari, turli xil tayyor buyumlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar kiradi.

**ANDIJON
VILOYATINING
AYRIM
DAVLATLAR
BILAN EKSPORT
TARKIBI
(2021- yil
yanvar-fevral,
ming AQSh.
Dol-8,4lar)**

XSST tarkibi	Qozog'iston		Qirg'iz Respublikasi		XXR		Rossiya Federatsiyasi	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	4 276,3	47 921,5	23 082,8	35 667,3	12 489,0	16 055,0	8 042,4	9 006,1
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,6	10,9	1 545,3	2 926,9	-	-	368,0	353,7
Ichimliklar va tamaki			33,9	31,6				
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	4 353,8	616,7	848,9	227,0	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	0,5	-	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	0,2	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	10,5	31,8	114,9	151,3	-	-	13,9	44,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalanган sanoat tovarlari	236,2	140,8	4 748,3	9 857,3	11 640,0	15 827,9	868,7	1 681,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	2 792,7	46 247,4	555,6	229,0	-	-	1 397,3	2 197,8
Turli xil tayyor buyumlar	1 118,9	1 393,2	11 695,3	21 839,1	-	-	4 995,1	4 442,9
Xizmatlar	112,4	97,4	35,7	14,7	0,1	0,1	399,4	285,6

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 3,5 mln. dollar qiymatli 6,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,2 barobarga o'sish kuzatildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2,0 mln. AQSh dollariga teng 5,4 ming tonna sabzavot, shuningdek, 1,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi 0,9 ming tonna meva va rezavorlar va 0,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi 0,3 ming tonna yer yong'oq eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi jami eksportning 3,0 % ini tashkil etdi.

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI
(2021- yil
yanvar-fevral,
ming. AQSh
dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (87,2 %), Rossiya Federatsiyasi (9,2 %), Germaniya (2,9 %), Latviya (0,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI
GEOGRA-
FIYASI (2021-
yil yanvar-
fevral)**

Davlat nomi	2020- yil			2021- yil		
	Tonna	Ming AQSh dollar	Ulushi* % da	Tonna	Ming AQSh dollar	Ulushi* % da
Qirgiziston	4 029,0	1 359,7	83,7	5 352,8	2 736,4	87,2
Rossiya Federatsiyasi	398,7	240,2	14,8	867,0	289,2	9,2
Germaniya	-	-	-	36,6	91,9	2,9
Latviya	-	-	-	21,0	23,0	0,7
Ukraina	72,7	25,3	1,5	-	-	-

**-qiymat ifodasida*

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI**

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 57,1 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 48,8 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 64,3 % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (48,8 %), paxtadan yigirilgan ip (32,3 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 140 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 19 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI
DINAMIKASI
(yanvar-fevral,
ming AQSh
dollari)**


Tovar nomi	2020- yil.	2021- yil.
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlar	15 126,8	27 859,3
Paxtadan yigirilgan ip	14 291,3	18 419,6
Naqshli mato	2 135,7	5 461,8
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	449,8	1 598,7
Paxta mahsulotlari	239,7	710,3
Paxtadan gazlamalar	197,2	558,9
Ipak va ipak mahsulotlari	2 203,6	284,5
Gilamlar	-	4,7

ANDIJON VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-fevral)

2021- yil yanvar-fevral oylarida import hajmi 191,6 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 51,5 % ga kamaydi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (62,4 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (21,3 %), turli xil tayyor buyumlar (6,0 %), shuningdek kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (5,5 %) ga to'g'ri keldi.

XSST BO'LIMI
BO'YICHA
IMPORT
TARKIBI
(2021- yil
yanvar-fevral,
ulushi, % da)



- | | |
|---|---|
|  Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar |  Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar |
|  Ichimlik va tamaki |  Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari |
|  Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari |  Mashinalar va transport asbob uskunalar |
|  Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar |  Turli xil tayyor buyumlar |
|  Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar |  Xizmatlar |

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-fevralida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 203,4 mln. AQSh dollariga kamaydi va 191,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,1 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORT TARKIBI
(2021- yil
yanvar-fevral)**

XSST tarkibi	Ming AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar
Jami import	191 580,0	23 736,0	167 844,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 437,9	996,3	2 441,6	1,8	4,2	1,5
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 744,3	1 137,1	607,1	0,9	4,8	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 491,1	1 575,5	915,6	1,3	6,6	0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	297,1	250,8	46,3	0,2	1,1	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	10 588,8	1 605,4	8 983,4	5,5	6,8	5,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	40 824,6	14 457,8	26 366,8	21,3	60,9	15,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	119 530,4	3 635,4	115 895,0	62,4	15,3	69,0
Turli xil tayyor buyumlar	11 540,8	56,7	11 484,2	6,0	0,2	6,8
Xizmatlar	1 125,0	21,0	1 104,0	0,6	0,1	0,7

Importning eng katta ulushi, jumladan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (60,9 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (15,3 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (6,8 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (69,0 %), sanoat tovarlari (15,7 %) va turli xil tayyor buyumlar (6,8 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**MDH VA
BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2021- yil
yanvar-fevral)**

XSST tarkibi	2020- yil yanvar-fevralga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	48,5	72,1	38,3
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	116,3	133,0	110,7
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	92,4	115,8	67,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	191,4	195,4	184,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	66,6	56,2	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	72,8	134,5	67,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	54,6	66,6	49,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	47,8	52,5	47,7
Turli xil tayyor buyumlar	58,9	3,1 m.	58,6
Xizmatlar	3,8	17,9	3,7

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan mashinalar va transport asbob-uskunolari 63,6 % dan 62,4 % ga kamaydi, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari importining ulushi 18,4 % dan 21,3 % ga, turli xil tayyor buyumlar 5,1 % dan 6,0 % gacha o'sdi.

**IMPORT TARKIBI
DINAMIKASI
(2021- yil
yanvar-fevral,
ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil.	2020- yil.	2021- yil.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,6	0,7	1,8
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,5	0,5	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,3	1,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5,6	3,7	5,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	18,4	18,9	21,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	63,6	63,3	62,4
Turli xil tayyor buyumlar	5,1	5,0	6,0
Xizmatlar	5,7	7,5	0,6

**XSST BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2021- yil
yanvar-fevral)**

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	O'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar	1 779,5	147,8
Sabzavotlar va mevalar	433,0	2,7 m.
Sut mahsulotlari va qush tuhumlari	400,3	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	352,1	150,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	187,9	35,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	648,9	145,0
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	643,8	2,5 m.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	155,0	194,0
56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom- ashyo va mineral xom- ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaxo toshlardan tashqari)	133,9	35,7
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	121,5	17,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Ko'mir, koks va briketlar	1 558,5	2,2 m.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	932,6	158,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar		



**XSST BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2021 - yil
yanvar-fevral)**

va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	250,8	56,2
Hayvon va o'simlik moylari, qayta ishlangan	46,4	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	4 739,5	76,1
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1 659,5	64,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar	1 376,5	79,9
Organik kimyo moddalari	1 073,2	55,3
Tibbiyot va farmaseftika mahsulotlari	945,6	4,5 m.
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	12 909,3	47,2
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan tasniflanmagan	8 751,0	45,8
Metaldan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	7 699,6	40,5
To'qimachilik yigirilgan ip, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar	5 427,5	113,5
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan va shunga o'xshash mahsulotlar	5 308,3	2,0 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Avtomobillar	74 053,4	40,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	19 011,1	68,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	11 088,0	68,4
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	4 971,9	48,9
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	4 936,1	71,3
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	3 119,1	35,5
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3 110,7	48,6
Har xil tayyor buyumlar		
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar	3 096,6	88,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armaturalar	1 764,1	3,8 m.
Poyabzal	227,0	106,0
Xizmatlar		
Boshqa amaliy xizmatlar	717,0	3,1 m.
Transport xizmatlari	378,0	61,0
Intellectual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan	30,0	0,1

MDH VA
BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2021 - yil
yanvar-fevral)

Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari mahsulotlari importi hajmlarining kamayishiga 56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaxo toshlardan tashqari) (64,3 % ga) va to'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari (82,5 % ga) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar importi kamayishiga esa, o'simlik moylari va yog'lari (43,8 % ga) importining kamayganligi bevosita ta'sir etgan.




**TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTIDAGI
YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
(yanvar-fevral)**

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Koreya Respublikasi umumiy import hajmida 54,6 % ulushi bilan Xitoy Xalq Respublikasini (14,6 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egallab kelmoqda.

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- yil.	2021- yil.	2020- yil.	2021- yil.	2020- yil.	2021- yil.
Koreya Respublikasi	264 501,8	104 516,5	100,8	39,5	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	37 209,7	28 033,9	152,4	75,3	2	2
Rossiya Federatsiyasi	29 784,5	14 629,6	117,2	49,1	3	3
Turkiya	12 678,8	13 709,8	2,7 m.	108,1	5	4
Qirg'iz Respublikasi	1 532,2	6 297,2	47,1	4,1 m.	14	5
Braziliya	4 263,5	2 715,2	142,8	63,7	6	6
Hindiston	2 155,3	2 152,9	91,0	99,9	12	7
AQSH	3 118,4	2 093,6	143,8	67,1	8	8
Italiya	2 266,0	1 717,8	126,7	75,8	11	9
Polsha	820,7	1 693,9	127,4	2,1 m.	17	10
Qozogiston	1 341,0	1 572,7	65,7	117,3	15	11
Chexiya	2 734,2	1 430,9	129,3	52,3	9	12
Avstriya	587,5	1 250,7	115,8	2,1 m.	20	13
Daniya	-	1 095,5	-	-	-	14
Tailand	18 380,8	1 061,3	13,6 m.	5,8	4	15
Eron Islom Respublikasi	744,4	1 033,2	139,5	138,8	18	16
Slovakiya	897,8	1 003,3	140,0	111,8	16	17
Germaniya	4 027,8	618,7	191,8	15,4	7	18
Ukraina	49,7	476,0	14,4	9,6 m.	34	19
Fransiya	510,9	462,2	204,4 m.	90,5	21	20

**ANDIJON
VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2021 - yil
yanvar-fevral,
% da)**



Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Braziliya va Xindiston) jami importning 89,8 % ini tashkil qiladi, bu 172,1 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Viloyatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Koreya Respublikasi, XXR, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**MASHINA VA
USKUNALAR
IMPORTI**

**MASHINA VA
USKUNALAR
IMPORTI
DINAMIKASI
(yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari)**

2021- yil yanvar-fevral oylari yakuni bilan 119,5 mln. AQSh dollari miqdorida mashinalar va transport asbob uskunalar importi amalga oshirilgan bo'lib, umumiy import hajmining 62,4 % ini tashkil qildi.

Import qilingan usbu sohada asosiy ulushni avtomobillar (62,0 %), aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar (15,9 %) va sanoat uchun mahsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari (9,3 %) egallagan.

Joriy yilning yanvar-fevral yakuniga ko'ra, mashina va transport asbob uskunalar importi 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati (47,8 %) qayd etildi.

Mashina va uskunalar	2020- yil.	2021- yil.
Avtomobillar	182,0	74,1
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	27,9	19,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	16,2	11,1

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan sanoat sohasining avtomobilsozlik tizimi butlovchi qismlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon avtomobil bilan ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:74-224-82-57**